

## **Matematika darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati**

*Surxandaryo viloyati Oltinsoy tumani 29-maktab matematika fani o'qituvchisi*

*Xursand Astanaqulov Abdurashidovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida yoritilgan bo'lib, unda o'quvchilarni qiziqtiruvchi usullar bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bilim va ko'nikma, ilm-fan, matematika, plakat, kreativ fikrlash...

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaldagi bosqichi ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish, o'quv tarbiya jarayonini sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash kabi qator vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish har bir ta'lim muassasasining, shu jumladan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining bevosita vazifasi sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun matematika fani o'qituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Pedagogik texnologiya atamasiga shu muammo bo'yicha izlangan har bir olim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Unga ko'ra, pedagogik texnologiya – o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'siri ni aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Ushbu ta'rifdagi inson salohiyati atamasida o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning bilish faoliyati, texnik resurslar atamasi o'qitish

metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda. Matematika fani metodikasining vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashga ta'sirini jadallashtiradi. Bunda darsliklarda berilayotgan mavzular o'qitish rivojiga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Albatta interfaol usullarsiz darslarni tashkil etish o'quvchilarni zerikishiga olib keladi. Interfaol usullardan foydalanish esa, darsni jonli tashkil etishni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o'rtasida bog'lanish hosil qilib, berilgan materialni to'la tushunishga zamin yaratadi. Interfaol usuldagi o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'liub ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjatlar bilan ishlash, ijodiy ishlash kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo'lgan o'quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.

**“Xira oyna” usuli.** Dastlab guruh a'zolariga “Xira oyna” tarqatmalari tarqatiladi. Guruh a'zolari kelishgan holda dars davomida tushunmagan va bilmoqchi bo'lgan ma'lumotlarini tarqatmaning xira tomoniga, oynaning tiniq tomoniga tushungan va bilgan ma'lumotlarini yozib boradilar.



**“Maqsad sari bir qadam” usuli.**


Ta'rif: Mashq qo'yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirish mumkin va lozim bo'lgan harakatlarni aniqlashtirishga qaratilgan. Ishtirokchilardan gorizontol chiziq chizish va unda teng masofada 11ta nuqta qo'yish va ularni 0dan 10gacha bo'lgan raqamlar bilan belgilab chiqish iltimos qilinadi. Bu chiziq maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. Chap tomondagi nuqta (0) maqsadga umuman erishilmaganligini aks ettiradi, o'ng tomondagi chiziq esa (10) maqsadga butunlay va eng muvaffaqiyatli ravishda erishilganligi vaziyatidan darak beradi. Ishtirokchilardan ushbu har bir ikki nuqtaning oldida eng yomon va eng yaxshi vaziyatni ta'riflaydigan

bir necha soʻzlarni yozish iltimos qilinadi. Shundan soʻng ishtirokchilardan hosil boʻlgan shkala yordamida oʻzlarining ishdagi ahvollarini – ular maqsadga qanchalik yaqinlashib qolganlarini baholash iltimos qilinadi. Ishtirokchilar tegishli raqamni belgilaydilar va uning yonida ishlarning joriy ahvolini ifodalaydigan bir necha soʻzlarni yozadilar. Keyin esa ulardan ularning hozirgi vaziyatini aks ettiradigan nuqtadan navbatdagi nuqtagacha strelka chizish iltimos qilinadi. «Bu maqsadingizga erishish uchun eng qisqa yoʻl. Hozircha bu maqsadga toʻliq erishib boʻlmasa-da, biroq hech boʻlmasa bu qadamni amalga oshirish mumkin va kerak. Bu qadamni amalga oshirish uchun siz qanday aniq harakatlarni qilishingiz mumkin va aynan qachon siz buni bajarishingizni oʻylab koʻring va yozib oling».

*Foydalanish doiralari:* Tabiiy va aniq fanlarni oʻqitishda, savollarni maʼlum oʻquv mavzusi va turli yoshdagi oʻquvchilar guruhiga moslashtirishda.

*Afzalliklari :*Ushbu mashq masalalarni aniqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish va unga erishish yoʻlidagi qadamlarni tushunishga hamda mulohazalar yuritishdan aniq harakatlarga oʻtishga imkon beradi. Koʻpincha odam istayotgan maqsadiga kerakli xususiyatlar va sharoitlarga ega boʻlmaganligi uchun emas, balki maqsad uning uchun juda yirik boʻlib koʻringanligi va odam unga erishish jarayonini hozirning oʻzidayoq qilish mumkin va lozim boʻlgan aniq harakatlarga, bosqichlarga ajrata olmasligi uchun erisholmaydi. Mashq ushbu cheklovni hech boʻlmasa qisman bartaraf etishga imkon beradi.

*Qiyinchiliklari:* Mashqni bajarish uchun kerak boʻlgan vaqtni hisoblash chiqish. Chunki aynan matematika fani aniq vaqtni belgilash asosida oʻtiladi.



**“Nuqtayi nazaring bo‘lsin”  
usuli.**

a)  $x=y$ ,  $8x+5x+50=180$ ,  $13x=180-50$ ,  $13x=130$ ,  
 $x=130:13$ ,  $x=10$ ,  $8*10=80$ ,  $5*10=50$ ,  
 $50+50+80=180$

b)  $2x+x+3x=180$ ,  $6x=180$ ,  $x=180:6$ .  $X=30$ ,  
 $2*30=60$ ,  $3*30=90$ ,  $60+90+30=180$

c)  $x=y=z$ ,  $5x+6x+7x=180$ ,  $18x=180$ ,  $x=10$ ,  
 $5*10=50$ ,  $6*10=60$ ,  $7*10=70$ ,  $50+60+70=180$

Xulosa shuki, ta’lim muossalarida ilg‘or pedagogic texnologiyalardan foydalanish zamon talabidir. Ba’zi ta’lim muassasalari kompyuter jihozlari bilan ta’minlanmagan bo‘lsa, ba’zilari internet tarmoqlariga ulanmagan. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning tegishli farmonlari asosida barcha xududlarda birdek imkoniyat yaratilishi taminlanmoqda. Bu albatta quvonarli hol. Ta’lim bor joyda o’sish ham bo’ladi. Aytilganidek eng yaxshi investitsiya ta’lim olishingiz uchun kiritilgan investitsiyadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Farberman B “Ilg'or pedagogik texnologiyalar”. Toshkent .2000-yil.
2. S.Eshqobilov, B.Xurramov “Fanni o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish”. O‘quv qo‘llanma. 2019-yil.
3. Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv–uslubiy majmua –Toshkent 2016-y.
4. Internet saytlari: [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz) , [www.edu.uz](http://www.edu.uz)